

QIYOSIY–TARIXIY METODNING ILMIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Muallif: Abdullayeva Muslima

Andijon davlat instituti,

Arab tili filologiyasi yoʻnalishi,

1-kurs talabasi

Ilmiy maslahatchi: Kabulova U.S

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy metodning mohiyati, uning tilshunoslikdagi oʻrni va ahamiyati yoritilgan. Metodning asosiy prinsiplari, boshqa metodlardan farqli jihatlari hamda turli tillarni oʻrganishda qoʻllanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tarixiy-qiyosiy metodning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati va tadqiqotlarda tutgan oʻrni haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: qiyosiy-tarixiy metod, zamonaviy tilshunoslik, metod, prinsip, lingvistika.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность историко-сравнительного метода, его значение и роль в лингвистике. Анализируются основные принципы метода, его отличия от других подходов и возможности применения при изучении различных языков. Также подчеркивается значение историко-сравнительного метода в современной лингвистике и его вклад в развитие научных исследований.

Ключевые слова: современное языкознание, метод, сопоставительный-исторический метод, принцип, лингвистика

Abstract: This article explores the essence of the historical-comparative method, its importance, and its role in linguistics. The main principles of the method, its differences from other linguistic approaches, and its application in the study of various languages are analyzed. The article also highlights the significance of the historical-comparative method in modern linguistics and its contribution to linguistic research.

Keywords: comparative-historical method, modern linguistics, method, principle, linguistics.

KIRISH. Insoniyat tarixini, tillarni va madaniyatlarni oʻrganishda eng muhim usullardan biri bu qiyosiy–tarixiy metoddir. Bu metod voqealar, til hodisalari yoki madaniy jarayonlarni turli davr va makonlarda taqqoslab tahlil qilish orqali ularning oʻzaro bogʻliqligini va umumiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Qiyosiy-tarixiy metodning asosiy maqsadi — oʻxshash va farqli jihatlarni solishtirish orqali rivojlanish sabablarini

tushunishdir. Shu bois bu metod nafaqat tarix fanida, balki tilshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik va hatto siyosatshunoslikda ham keng qo'llaniladi¹.

METODNING KELIB CHIQISHI. Qiyosiy-tarixiy metodning dastlabki shakllari XIX asrda tilshunoslikda vujudga kelgan. Ayniqsa, sanskrit, yunon, lotin va german tillari o'rtasidagi o'xshashliklarni o'rganish orqali til oilalarini aniqlash bu yondashuvning ilmiy asosiga aylandi. Keyinchalik metod tarixshunoslik va ijtimoiy fanlarga ham kirib keldi. XX asrda Theda Skocpol, Charles Tilly, Barrington Moore kabi olimlar bu metodni jamiyatlarning siyosiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo'lladilar².

Bu metod yordamida ular nima uchun ayrim jamiyatlarda inqiloblar yuz berdi, boshqalarida esa yo'q, degan savollarga tarixiy-taqqosiy asosda javob topishga harakat qilganlar.

METODNING MOHIYATI VA BOSQICHLARI. Qiyosiy-tarixiy metod uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tadqiqot obyektni belgilash. Bu bosqichda o'rganilayotgan hodisaning doirasi, davri va hududi aniqlanadi.
2. Taqqoslanadigan holatlarni tanlash. O'xshash yoki farqli, lekin maqsadga muvofiq holatlar tanlanadi.
3. Natijalarni tahlil qilish. Har bir holatning o'ziga xos rivojlanish yo'li o'rganilib, ularning o'zaro ta'siri va sabab-natija bog'liqligi aniqlanadi. Masalan, tilshunoslikda arab, fors va turkiy tillardagi so'z yasallash tizimini solishtirish orqali ularning o'zaro ta'siri va tarixiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash mumkin³.

QIYOSIY-TARIXIY METODNING AFZALLIKLARI. Chuqur tahlil imkoniyati. – Nazariy asoslarni mustahkamlash. – Ilmiy obyektivlik. – Fanlararo yondashuv.

METODNING CHEKLOVLARI. Har qanday ilmiy metod singari, qiyosiy-tarixiy metodning ham ayrim cheklavlari mavjud. Eng asosiylaridan biri — manbalar tanqisligi. Tarixiy davrlar haqida to'liq ma'lumot yo'qligi natijalarni cheklab qo'yishi mumkin. Shuningdek, taqqoslanadigan holatlarni noto'g'ri tanlash yoki bir tomonlama yondashuv natijalarni noaniq qiladi. Shu bois, tadqiqotchi doimo faktlarga tayangan holda, ehtiyotkorlik bilan xulosa chiqarmog'i zarur⁴.

AMALIY QO'LLANILISHI. Qiyosiy-tarixiy metod bugungi kunda O'zbekiston ilmiy sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, arab tili filologiyasida bu metod orqali arab va o'zbek tillaridagi grammatik tizimlarning o'xshashliklari,

¹Lange M. Comparative-Historical Methods. – SAGE Publications.

² Skocpol T. States and Social Revolutions. – Cambridge University Press, 1979.

³ Qiyosiy tahlil metodologiyasi, Fled.uz elektron jurnali, 2013

⁴Wikipedia. Comparative historical research. —

https://en.wikipedia.org/wiki/Comparative_historical_research

leksik ta'sirlar va fonetik o'zgarishlar tahlil qilinmoqda. Shuningdek, adabiyotshunoslikda turli xalqlar adabiyotidagi umumiy motivlar, syujetlar va obrazlar o'rganilib, ularning o'zaro ta'siri tahlil qilinmoqda⁵.

XULOSA. Qiyosiy-tarixiy metod — bu ilmiy izlanishlarda tizimlilik, mantiqiylik va tarixiylikni birlashtiruvchi kuchli metodologik vositadir. U nafaqat o'tmishdagi hodisalarni chuqurroq tushunish, balki hozirgi davr jarayonlarini ham to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Arab tili va boshqa tillar misolida bu metod orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy o'zaro ta'sirlarning ildizlarini ham anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Skocpol T. States and Social Revolutions. – Cambridge University Press, 1979.
2. Lange M. Comparative-Historical Methods. – SAGE Publications.
3. Qiyosiy tahlil metodologiyasi, Fled.uz elektron jurnali, 2013
4. Wikipedia. Comparative historical research. — https://en.wikipedia.org/wiki/Comparative_historical_research
5. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'quv qo'llanma. – Namangan davlat universiteti.
6. ScienceDirect. Comparative History bo'limi.
7. Northwestern Political Science. Comparative Historical Studiessahifasi.

⁵ Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'quv qo'llanma. – Namangan davlat universiteti.